



Amir Temur's Military March

Amir Temurning Harbiy Yurishlari

Erin Niyazov Shamsiyevich

Lecturer at the Faculty of Military Education, Bukhara State University
Teacher of Military History and Military Humanitarian Law

ABSTRACT

From a young age, Temurbek began to look at military service with a special love and passion. In it, in the very early emergence of interest in martial arts, one of the pillars of the state, Amir Qazaqan (martyred in 1358), Amir Taragay, known for his courage, bravery and nobility, death 1360) to a certain extent.

Annontatsiya: Temurbek yoshlik chog'idan harb ishiga o'zgacha muhabbat va ehtiros bilan qaray boshladi. Unda harbiy san'atga bo'lgan qiziqishning o'ta erta paydo bo'lishida padari buzrukvari , amir Qazag'on (1358-yili shahid bo'lgan) davlatning arkonlaridan biri, **mardligi**, shijoati va olivjanobligi bilan nom chiqargan amir Tarag'ayning (vafoti 1360) ma'lum darajada hissasi bor.

Keywords:

Temurbek, military service

Navqiron yoshga yetgan Temur salkam bir yarim asrlik mo'g'ullar istibdodiga chek qo'yish, feodal tarqoqlik natijasida Chig'atoy ulusida hukm surayotgan o'zaro nizolar va urushlarga barham berish, tashqi va ichki zug'um tufayli tinkasi qurigan xalq ommasiga madad qo'lini cho'zish, xarob bo'lgan shahar va qishloqlarni qayta obod qilish, ulusni tashqaridan bo'ladigan bosqinlardan himoya qilish singari oljanob maqsadlarni yuzaga chiqarishni birdan-bir yo'li-hokimiyatni qo'lga kiritish ekanligini yaxshi anglab yetadi.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan.Ularning o'zaro kurashlarida qatnashib, jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqan, harbiy mahoratini oshirgan.Dong'I butun Qashqadaryo vohasiga yoyilgan. Amir Temurning aql-u zakovati , shijoati, shuhratni Movarounnahrning nufuzli amirlaridan

amir Yasovuriy va amir Qazag'on bilan yaqinlashtirdi.Xondamirning yozishicha, otasi amir Tarag'ay Amir Temurni avval (1352) amir Joku barlosning qizi Turmush og'aga , so'ngra Qazag'onning nabirasi va amir Husaynning singlisi O'ljoy Turkon og'aga uylantiradi. Keying nikoh tufayli Amir Temur bilan Balx hokimi amir Husayn o'rtasida ittifoq yuzaga kelib, ular birgalikda mo'g'ullarga qarshi kurashadilar. Amir Temurning Movarounnahrni birlashtirish yo'lidagi harakatlari XIV asrning 60-yillari boshlaridan boshlandi.XIV asrning 50-yillari oxirida Movarounnahrda amirlarning o'zaro **kurashi kuchayib**, amir Qazag'on o'ldirildi. Mamlakatda siyosiy parokandalik avjiga chiqib, og'ir tanglik sodir bo'ldi.Xondamirning "Habib us-siyar" kitobida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, ulus o'nga yaqin mustaqil bekliklarga bo'linib ketgan. Samarqand viloyatida amir Bayon Sulduz, Keshda amir Hoji barlos, Xo'jandda

amir Boyazid jaloyir, Balxda O'ljay Bug'a sulduz, Shibirg'onda Muhammad I Xoja Aperdi nayman, Ko'histonda Badaxshon shohi amir Sotilmish, Xuttalonda Kayxusrav, Hisori Shodmon hududida amir Husayn va amir Xizr Yasovuriylar o'zlarini hokimi mutlaq deb e'lon qildilar.

Bu davrda Chig'atoy ulusining sharqiy qismi-Yettisuv va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilayotgan mo'g'ul xonlari Movarounnahrdagi og'ir **siyosiy vaziyatdan foydalanib**, bu yerda o'z hokimiyatini o'rnatishga harakat qiladilar. Jeta xonlaridan Tug'luq Temur va uning vorisi Ilyosxo'ja 1360-1361 va 1365-yillarda Movarounnahrga bir necha bor bostirib kiramadilar. Mo'g'ul xonlarining bosqinchilik yurishlari va zulmiga qarshi xalq harakati boshlanadi. Movarounnahr xalqi barcha tabaqalarining qo'llab-quvvatlashi hamda bevosita ishtirokida 1370-yili hokimiyatni qo'lga olish Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga birligidan mahrum bo'lgan mamlakatni birlashtirish, istiqlolni qayta tiklash baxtiga tuyassar bo'ladi. Temurbek taxtga o'tirish boisi o'laroq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy hayotda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlar o'z ifodasini harb ishida va harbiy san'atda ham namoyon etadi.

Asosiy karvon yo'llari ustidan nazorat o'rnatish¹, ulus qudratini yanada oshirish, xalq turmush tarzini yaxshilash singari ustuvor maqsadlar yo'lida Temur o'sha davrda tengi yo'q harbiy kuchlari bilan Jeta, Eron, Afg'oniston, Kavkaz, Iroq, Shom, Misr, Dashti Qipchoq, Shimoliy Anado'li, Hindiston kabi mintaqalarga bir necha bor qo'shin tortib bordi, olamshumul zafarlar quchdi.

Harb tarixi Temurni jahoning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida, haqli ravishda, tan oladi. Uning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda:mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda tarzida yorqin namoyon bo'ldi.²

Buyuk lashkarboshi va novator tashkilotchi sifatida Temur o'ta **intizomli armiya tuzishga**, muhoraba chog'ida qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladiga joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga har qanday to'siq va g'ovlarni tadbirkorlik bilan bosib o'tishga,

armiyadagi jangovar ruhni kerakli darajada ushlab turishga tuyassar bo'ldi. Sohibqiron turk-mo'g'ul xalqlari, xususan, Chingizzon lashkari tuzilishini, ularning jang olib boorish amallarini atroficha o'rganib, tahlil qiladi va zarur o'zgartirishlar kiritadi.

Dubulg'a, zirih (sovut), qilich, yoy, sadoq, qalqon va nayza bilan ta'minlangan og'ir qurolli suvoriyalar sara jangchilardan tuzilgan, g'animing asosiy zarbasiga qarshi turgan, jang natijasini hal etishda katta rol o'ynagan.

Yurishga jo'natishdan oldin Temurbek arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, beklar, amirlarni harbiy kengash-mashvaratga chorlagan. Ayni chog'da ulusning turli viloyat vat umanlaridan, shuningdek tobe yurtlardan qo'shin toplash uchun maxsus buyruq-tunqal e'lon qilingan. Farmon kerakli joylarga yuqori mansab egasi, bosh qo'mondonning ad'yutanti-tavachi tomonidan tezlik bilan yetkazilgan. Tavachining zimmasiga askar jamlashdan tashqari qo'shin qismlarining qarorgoh yoki safardagi o'rni, jangovar jartib-yasoli hamda bir joydan ikkinchi joyga ko'chishni nazorat qilish ham yuklatilgan edi.

Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishiga ko'ra, Temurbek Dashti Qipchoqqa qilingan yurish (1390-1391) oldidan qo'shinni bir yilga yetadigan oziq-ovqat, qurol-yarog', kiyim kechak va boshqa safar uchun zarur ashyolar bilan ta'minlashni o'z noiblariga buyurgan. **Har bir suvoriyga bitta yoy**, 30 ta o'q, bir sadoq, bir qalqon va bitta qo'shimcha ot ajratilgan. Yurish vaqtida har o'n jangchi bir chodir, ikki belkurak, bir kerki, bir o'roq, bir arra, bir tesha, bir bolta, 100 dona nina olgan.

Sohibqiron yurish paytida tajribali sipohiylargacha katta ishonch bildirgan. Ko'p marotabali so'qishlarda suyagi qotgan, urushni o'zining bosh mashg'uloti deb sanagan jangchilar safar boshlanishidan **avval jam qilingan**, ularga kirim-chiqiqm daftariga, shuningdek davlatdan maosh ulufa, oziq-ovqat, yem-xashak oluvchilar ro'yxatiga kiritilgan. Tuzilishiga ko'ra Temurbek armiyasi turkmo'g'ul xalqlari uchun an'anaviy bo'lgan o'n, yuz, ming va tumanlarga taqsimlangan. Ularga o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. "Temurbek tuzuklari" da qayd

etilishicha, qo'shin qo'mondonlari safiga Temurbek oliyhimmat, oqil, mard, tadbirkor, sezgir, jur'atli, sabotli, harb ishiga jon-dilini bag'ishlagan iste'dodli shaxslarni jalb etish masalasiga katta e'tibor bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "va novator tashkilotchi" **2021**
2. "Buyuk lashkarboshi" **1993**
3. "iste'dodli shaxslarni jalb etish" **2009**
4. "tajribali sipohiylar" **2016**